

YUNUS TO'RAYEV — IBRATLI HAYOT YO'LI SOHIBI

Ibrohimov Akromxo'ja Abdukarimxo'ja o'g'li

Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti

"Estrada xonandaligi" kafedrası 2- bosqich talabasi

Ilmiy raxbar: Meldebekov. A

O'zbekiston milliy estrada san'ati tarixida o'ziga xos o'rin egallagan san'atkorlardan biri — Yunus Sharipovich To'rayev hisoblanadi. U o'zining serqirra ijodi, fidokorona mehnati va pedagogik faoliyati bilan nafaqat sahnada, balki ta'lim sohasida ham katta iz qoldirgan shaxsdir. Uning hayot yo'li har bir inson uchun haqiqiy ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

Yunus To'rayevning hayot yo'li oddiylıkdan boshlanib, asta-sekin katta maqsadlar sari intilish bilan boyib bordi. U 1950-yilda Buxoro musiqa maktabida tahsil olayotgan paytda armiyaga chaqiriladi. Harbiy xizmatni Rossiyaning Odessa shahrida o'tab, 4 yil davomida ashula va raqs ansamblida faoliyat yuritadi. Aynan shu davr uning ijodiy shakllanishida muhim bosqich bo'lib, u Bolgariya, Belgiya va Polsha kabi davlatlarda gastrol safarlarida qatnashib, katta tajriba orttiradi.

1958-yilda u Nikolayev shahrida ansambl tashkil etib, 1961-yilgacha solist sifatida faoliyat olib boradi. Bu esa uning mustaqil ijodiy faoliyatini boshlaganidan dalolat beradi.

1961-yilda O'zbekistonda o'tkazilgan estrada orkestri tanlovida ishtirok etishi Yunus To'rayev hayotida muhim burilish bo'ladi. Ushbu tanlovda taniqli san'at arboblari — Abdurahim Muhammadov, Ikrom Akbarov, Sharif Ramazonov va Mutal Burhonov hakam sifatida ishtirok etishgan. Tanlovdan so'ng u estrada orkestrida solist sifatida faoliyat boshlaydi.

U o'z faoliyati davomida Botir Zokirov bilan 18 yil davomida birga ishlaydi. Bu davr uning ijodiy kamolot davri bo'lib, ko'plab kompozitorlar unga maxsus qo'shiqlar yaratadilar. Keyinchalik u filarmoniyada ham solist sifatida faoliyat yuritadi.

Yunus To'rayev 1969-yilda konservatoriyaga o'qishga kirib, 5 yil davomida tahsil oladi va uni muvaffaqiyatli tamomlaydi. Talabalik davrida u "Yevgeniy Onegin" operasida ishtirok etib, o'zining vokal mahoratini yanada oshiradi.

1978–1979-yillardan boshlab u o'qituvchilik faoliyatini boshlaydi. U O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Respublika estrada-sirk kolleji hamda Batir Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati institutida yoshlarga saboq beradi. Bugungi kunda ham ushbu institutda professor sifatida faoliyat yuritib, ko'plab shogirdlar yetishtirib kelmoqda.

Yunus To'rayev nafaqat ijrochi, balki tashkilotchi sifatida ham faol bo'lgan. U Hamza nomidagi akademik drama teatrida badiiy rahbar sifatida ishlagan va talabalardan iborat orkestr tuzgan.

2012-yilda u Gulnora Azizxo'jayeva bilan birgalikda "O'zbeknavo" Respublika estrada birlashmasi qoshida Yoshlar orkestrini tashkil etadi. Ushbu jamoa "Mardu maydon" festivalida ikki marotaba ishtirok etib, katta muvaffaqiyatlarga erishadi.

Yunus To'rayev ijodida vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar alohida o'rin tutadi. Uning mashhur asarlari qatoriga quyidagilar kiradi:

“O‘zbekiston — diyorimga shukur”

“Baxt maskani”

“O‘zbekiston – vatanim manim”

Shuningdek, “Seni eslayman” qo‘shig‘i ham uning ijodiy merosida muhim o‘rin egallaydi.

Bundan tashqari, u ilmiy-uslubiy yo‘nalishda ham samarali faoliyat olib borgan. 2004-yilda G‘ani Xalilov bilan “O‘zbek estrada xonandaligi” kitobini yaratgan. Shu yili Dilorom Ammanullayeva bilan “Konservatoriyada estrada xonandaligi metodikasi masalalari” qo‘llanmasini chop ettirgan. 2006-yilda esa “Ohista” nomli kitobi nashr etilgan.

Yunus To'rayevning hayoti davomida turli qiyinchiliklar ham uchragan. Ammo u har doim sabr-toqat, matonat va kuchli iroda bilan ularni yengib o'tgan. Uning mehnatsevarligi, intizomi va ijodga bo'lgan muhabbati uni yuksak darajaga olib chiqdi.

U nafaqat kasbiy jihatdan, balki insoniy fazilatlari — kamtarlik, insonparvarlik va boshqalarga yordam berishga tayyorligi bilan ham ajralib turadi. Shu sababli u ko‘plab insonlar uchun nafaqat san’atkor, balki hayotda ibrat bo‘ladigan shaxsdir.

Yunus To'rayevning hayot yo'li — bu mehnat, izlanish va sadoqat timsolidir. U o‘z faoliyati orqali nafaqat o‘zbek estrada san’atini rivojlantirdi, balki kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratdi. Uning hayoti va ijodi har birimiz uchun ibrat bo‘lib, doimo oldinga intilish, mehnatdan to‘xtamaslik va orzular sari qat’iyat bilan borish zarurligini eslatadi.